

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA SINFLAR RAHBAR BO'LIHNING
AHAMIYATI

Toshkent shahar Olmazor tumani
298-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Adashaliyeva Kamola
adashaliyevakamola@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuqori va quyi sinflarni boshqarish, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlay olish, sinf rahbar sifatida yuqori boshqaruvchilik qobiliyatiga ega bo'lish, sinfdan tashqari o'tkaziladigan turli tadbirlar va metodlar to'g'risida atroflicha fikr yuritildi. Shuningdek, sinf rahbarlar ayrim o'quvchilarning ruhiy holatlarini hisobga olgan holda ular bilan ishlay oluvchi tajribali psixolog bo'lishlari lozimligi alohida ta'kidlandi.

Abstract. This article discusses in detail the management of upper and lower grades, the ability to work with parents, the ability to have high management skills as a class leader, various activities and methods held outside the classroom. It was also emphasized that class leaders should be experienced psychologists who can work with individual students, taking into account their psychological state.

Kalit so'zlar. Sinf rahbar, boshqaruv, hamkorlik, metod, sinfdan tashqari tadbirlar, rag'bat, tajriba

Keywords: Classroom teacher, management, cooperation, method, extracurricular activities, motivation, experience

Ma'lumki, hozirgi paytda barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'limda ham kuchli, o'z kasbining ustasi bo'lgan mutaxassislar, pedagog kadrlar yetishib chiqmoqda. Ularning yillar davomida oladigan tajribalari ta'limning yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa, o'quvchilar soni mingdan, ikki mingdan oshgan maktablarda ta'lim berish va darslar sifatini saqlab qolish juda muhim sanaladi. Bu jihatdan o'z fanini yetuk mutaxassisi bo'lgan fan o'qituvchilari bilan birgalikda tajribali sinf rahbarlari ham ahamiyatli o'ringa ega.

Aytish mumkinki, umumta'lim maktablarida o'quvchilar sonidan kelib chiqib har bir sinfdagi 30 yoki 40 tadan bo'lingan holda ta'lim olishadi. Ularning barchasi uchun bir pedagog mas'uliyatni zimmasiga olgan holda boshqaruv faoliyatini olib boradi. Ammo juda ko'plab pedagoglar boshqaruv jarayonida turli qiyinchiliklarga duch kelishadi. Masalan, o'quvchilar uchun javobgar bo'lish, turli nizoli masalalar va kelishmovchiliklarni ota-onalar bilan hamkorlikda hal qilish, ruhiy ahvoli turlicha bo'lgan bolalar bilan ishlay olishlari lozim. Buning uchun ulardan kuchli boshqaruvchilik qobiliyati talab etiladi. Bratislava Komenius universiteti pedagogika fakulteti professori Stefania Ferkovanning fikriga ko'ra, "Dars jarayonidagi yaxshi boshqaruv o'quvchilarning yaxshi ta'lim olishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ayni paytda boshqaruv jarayonidagi e'tiborsizlik ta'lim sifatiga ta'sir etadi va kutilmagan salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi". Dars vaqti va undan tashqari paytlarda ham o'quvchilarni nazoratda ushlab turish qiyin jarayon sanaladi. Buning uchun o'qituvchi va sinf rahbar kuchli pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Fan o'qituvchilari boshqara olmaydigan turli vaziyatlarda ham sinf rahbarlar o'zlariga tanish bo'lgan usullardan foydalangan holda fan o'qituvchilariga yordam berishadi. Yoki maktabdan tashqari turli tadbirlar yoki musobaqalar uyushtirilgan paytda sinf rahbarlar o'quvchilar xavfsizligini nazoratga oladilar va ular bilan bog'liq har qanday javobgarlikka tayyor bo'ladilar. Stefania Ferkova yana shuni ham eslatib o'tadiki, sinf rahbarlar va o'qituvchilar o'zlarining boshqaruvchilik qobiliyatlarini o'qitish jarayonida ham oshirib borishlari juda muhim, aks holda, turli qiyinchiliklarga uchrash ehtimoli yuqori. Sinf rahbarlar o'z faoliyatlari davomida bir necha umumiy javobgarliklarni zimmasiga olishlariga to'g'ri keladi:

- Sinfdagi barcha o'quvchilarning teng ta'lim olishlari uchun imkoniyat yaratib berish;
- Bitiruvchi sinf o'quvchilari maktabni tugatganlardan so'ng ham universitetga kirishlarini nazoratga olish;

- O‘quvchilarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish va o‘qituvchining kasbiy maveyiga mos bo‘lgan mas’uliyatli chegaralarga rioya qilish;

- O‘quvchilarning shaxsiy hujjatlari va boshqa har qanday hisobotlar uchun javobgar bo‘lish.

Bundan tashqari, sinf rahbarlari o‘z o‘quvchilari uchun namunali shaxs obrazini yarata oladilar, ya’ni kiyinish uslubida ham, muomala-madaniyat, xulq-atvor va mas’uliyatli bo‘lishda ham o‘rnak bo‘la oladilar. Zotan, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday deyiladi: “Agar tarbiya qiluvchi muallim o‘zi olim bo‘lib, amalsiz bo‘lsa, buning ham shogirdlarning axloqiga zo‘r ta’siri bo‘ladir”. Shu sababdan ham pedagoglardan har tomonlama ko‘nikma va tajribalarga ega bo‘lish talab etiladi. Ota-onalar bilan hamkorlik jarayoni ham juda ahamiyatli bo‘lib, o‘quvchilarning axloqi va tarbiyasida sezilarli o‘ringa ega.

Ta’lim va tarbiya jarayoniga ta’sir o‘tkazishda yuqori va quyi sinf o‘quvchilari farqlanadi. Quyi sinf o‘quvchilari, ya’ni birinchi sinfdan yettinchi sinfgacha bo‘lgan bolalarni boshqarish ancha oson va ularning mehrini qozonish ham ko‘p vaqt talab etmaydi. Chunki ular tabiatan ishonuvchan va barcha sohada qiziqqon bo‘ladilar. Bundan tashqari, bilim egallash jarayonida ham musobaqa va turli o‘yinlarga bo‘lgan ishtiyoq tufayli u qadar qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ammo yuqori sinf, ayniqsa 13-15 atrofidagi bolalarning aksariyatida tabiiy o‘smirlik jarayoni yuz berayotgani tufayli ular bilan munosabat qurish anchayin qiyin bo‘lishi mumkin. Bu nafaqat o‘qituvchilar uchun, balki ota-onalar uchun ham ayrim muammolarga sabab bo‘ladi. Mana shu jihatlarni hisobga olgan holda ular bilan do‘stona muomala muhitini yaratish va har qanday vaziyatda ham ularni tushunishni taqozo etadi. Aks holda, o‘qituvchini mensimaslik, haqoratlash yoki darsdan qochish holatlari ham kuzatilishi mumkin. Ular bilan munosabatda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Shunga ko‘ra, yoshga mos metodik usullardan darslar davomida foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, “muammoli vaziyat”larni yaratib berish, ya’ni chuqur o‘ylash va fikrlashlari

uchun mavzuga mos bo'lgan topshiriqlar berish darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Sinf rahbarlar, o'z navbatida, bolalarni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar davomida doimiy rag'batlantirib borishi kerak. Bu bolani o'ziga bo'lgan ishonchini ortishida va belgilangan maqsadga tezroq va osonroq erishishida yordam beradi. Bolalarning kundalik hayoti bevosita maktab bilan bog'langan ekan, sinf rahbarlar ularga ikkinchi ota-onasi kabi har bir holatlariga javob berishadi. Bu jihatdan sinf rahbarlar o'z kasblarining nihoyatda fidoyi va jonkuyar ustalari ekanidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi, 2018.- 14 b.
2. Saodat Qambarova Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Mahalla va oila nashriyoti, 2022.

Internet saytlari

- 1.<https://lib.cspu.uz/index.php>
- 2.<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-avloniy>
- 3.<https://journal.ph-noe.ac.at>